

## BATIK USULIDAN FOYDALANIB KIYIMLARNI TABIIY RANGDA BO'YASH USULI.

**Bobojonova Dilnavoz Baxtiyorjon qizi**

*Namangan to'qimachilik sanoati instituti "Dizayn" kafedrasi assistenti ,*

**Usanova Gulshodaxon Ibroximjon qizi**

*Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti Namangan filiali*

*"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi,*

**Tolipova Nasiba Mansurjon qizi**

*Namangan To'qimachilik sanoat insituti talabasi*

**Anotatsiya:** *Ushbu maqolada tabiiy paxta va ipak matosidan to'qilgan havo o'tkazuvchanligi va suv shimanish xususiyatlari yuqori bo'lgan trikotaj gazlamali ayollar fudbolkasida sinov-tajriba ishi o'tkazilib, trikotaj matosiga batik usulidan foydalanib, o'zimizda yetishtirilgan sho tut mevasidan bo'yoq sifatida bo'yash va yangi uslubdagi bo'yash usullarini ishlab chiqish.*

**Kalit so'zlar:** *Matosiga batik usuli, matolar tahlili, havo o'tkazuvchanligi, sho tut mevasidan bo'yoq, to'qilishi, trikotaj, rezavorlar, hunarmandchilik, ambatik*

## ОДЕЖДА НАТУРАЛЬНЫХ ЦВЕТОВ В БАТИКСКОМ МЕТОДЕ СПОСОБ ЖИВОПИСИ.

**Аннотация:** В этой статье был проведен тестовый случай на женской трикотажной футболке из натурального хлопка и шелковой ткани с высокой воздухопроницаемостью и водоотталкивающими свойствами. В качестве покраски и разработки новых методов стилевой росписи.

**Ключевые слова:** метод тканевого батика, анализ ткани, воздухопроницаемость, из плодов шелковицы краситель, плетение, вязание, ягоды

## CLOTHES IN NATURAL COLORS USING THE BATIK METHOD PAINTING METHOD

**Annotation:** In this article, a test case was conducted on a women's knitted T-shirt made of natural cotton and silk fabric with high air permeability and water-repellent properties. as painting and the development of new style painting methods.

**Keywords:** Fabric in batik method, fabric analysis, air permeability, dye, weaving, knitting, berries from mulberry fruit

Batik atamasi birinchi marta 17-asrning Gollandiyalik matnlarida uchraydi. Yavaliklar batikni “ambatik” deb atashadi, bu rasm chizish va yozishni anglatadi. Hindistondan badiiy tasvirlarni batik rasmiga o’xshash kiyimlarni ko’rish mumkin bo’lsa ham, bunday matolarning dastlabki namunalari topilmadi. Eng qadimgi namunalar Misrda topilgan, ular milodiy V asrga tegishli. Antik davrga oid boshqa topilmalarga Nara davridagi yapon rasmlari (646 - 794) kiradi. Ularning Yaponiyada yoki o’z vatanida ko’chib kelgan xitoylik rassomlar tomonidan bo’yalganiga ishonishadi.

Batik san’ati juda qadimi. Mato bo’yoqlaridan foydalanish to’g’risida dastlabki eslatmalarni milodiy 2500 yillarga oid xitoycha matnlarda topish mumkin. Ipak ixtirosi xitoyliklar uchun ham e’tirof etilgan (garchi miloddan avvalgi 1-ming yillikda u Hindistonda ham ishlab chiqarilishi mumkin edi degan fikr mavjud). “Butika”- Xitoy Sui sulolası davrida (710 - 794) ishlatilganligi haqiqatan ham ma’lum. Qanday bo’lmisin, tarix bu san’atni Xitoy bilan chambarchas bog’laydi, chunki u aynan shu yerdan butun dunyoga - ipak bilan birga tarqaldi. Keyinchalik nozik, yengil gazlama uning og’irligi oltin bilan baholanib, Xitoydan Yaponiyaga, Markaziy Osiyoga va u yerdan Yaqin Sharq va Hindistonga eksport qilindi. Shuning uchun ham ushbu savdo yo’li Buyuk Ipak yo’li deb nomlangan.

Matoni bezashning “Batik” usuli V asrda paydo bo’lgan bo’lib, Misr qabrlarida, hind, fors mamlakatlarida bo’yalgan matolarning eng qadimgi qismlari topilgan. Dunyo adabiyotida to’qimalarning rangi haqida eng qadimgi ma’lumotlar milodning I asrda Pliniy Elder kitoblaridan birida Misrda ishlatiladigan matolarni bo’yash usulini batafsil tasvirlab bergan: “Misrda kiyimlar hayratlanarli tarzda bo’yalgan: oq mato chizilganidan so’ng, u bo’yoqlar bilan singdirilgan. Bu ish tugagach, panelda hech narsa ko’rinmaydi, lekin uni issiq bo’yoq bilan qozonga solib, bo’yalganini o’z vaqtida chiqarib olishadi”[1]. Berilgan ta’rif batikning bugungi zamonaviy ta’rifiga juda o’xshash ekanligi tadqiqot jarayonida aniqlandi. Ushbu san’at shaklining ildizlari qadimgi davrlarga borib taqalishini ko’rish mumkin(1-rasm).



1-rasm. Qadimgi Batik san’ati nam’unalaridan.

Hozirgi vaqtida qo’l san’atlari alohida ahamiyatga ega hamda, tikuvchilik mahsulotlarini qo’l bilan bo’yashni o’z ichiga oladigan eng mashhur san’at turlaridan biri bu batik usulidir. Batik - matodagi badiiy rasmning turli xil usullari va texnikalarining umumiy nomi hisoblanib, “Batik” yasash san’ati zaxirani qo’llash

tamoyiliga asoslanadi. Ushbu printsip matoning ba'zi qismlariga bo'yoq o'tmaydigan maxsus kompozitsiya bilan ishlov berish orqali tayyorланади. Parafin, asal mumi yoki turli xil qatronlar odatda zaxira sifatida ishlataladi. Shuningdek, ba'zi mamlakatlarda, masalan, Indoneziyada, bambuk tayoq bilan surtilgan guruch pastasi asosida tayyorlangan zaxira kompozitsiyasining qadimgi retseptlari saqlanib qolgan. Ammo an'anaviy va eng keng tarqalgan zaxira shakli mum zahirasi hisoblanadi. Mumdan foydalanish tufayli batik yava tilidan tarjima qilingan “issiq mum bilan chizish” degan ma'noni anglatadi.

Batikning bir nechta turlari mavjud. Mato dizaynining eng qadimgi turlaridan biri tugunli batikdir . Ushbu san'at ming yillik an'anaga ega. Matoni bo'yash texnologiyasining mavjudligiga qaramay, ko'plab mamlakatlar o'zlarining maxsus usullari bilan mashhurdir. Masalan, batikning bu turi “bandana” deb nomlanadigan Hindistonda tugunli texnika texnologiyasida qo'shimcha ta'sir mavjud. Hindistonlik hunarmand ayollar matoni kichkina barmoq ustiga uzun tirnoq bilan yirtib, minglab mayda tugunlarni bog'lab, shu bilan murakkab rang-barang bezaklarni yaratishni o'rgandilar. Shuningdek, bu usul Yaponiyada keng tarqalgan bo'lib, u yerda “shibari”, ya'ni “tugun” degan ma'noni anglatadi. Ushbu uslub Yaponiyaga Xitoy va Indoneziyadan kelgan va u yerda u o'ziga xos madaniyat, izolyatsiya va o'zini o'zi ta'minlash tufayli rivojlanib borgan. Shunisi qiziqliki, o'sha paytda mamlakatda to'qish bosqichida shakllangan yana bir naqsh yaratish uslubi tarqaldi. U “ikat ”deb nomlangan. Har bir mamlakatda tugunli batik o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib hozirgi kunda zamonaviy hilma hil turlari mavjud.

Uy sharoitida ham gazlamalar rangini bo'yab o'zgartirish mumkin. Maishiy kiyimlar, ko'tarib-ushlab yuriluvchi sumkalar, applikatsiyalarini tayyorlash uchun ishlataladigan gazlamalarning rangi chiqib ketmasligi uchun ularni bo'yash qonun-qoidalariga rioya qilish kerak.



2-rasm.Batik usulida bo'yalgan fudboldkalar.

Bo'yashni boshlashdan oldin gazlamalarni qanday tolalardan tashkil topganligini aniqlab olish muhim hisoblanib, tadqiqot davomida tabiiy hususiyatlari yuqori bo'lgan, paxta— tolali gazlamalardan turli o'rlishdagi trikotaj gazlamasi tanlab olindi. Namangan muhandislik-teknologiya instituti (NamMTI) sinov labaratoriyasida

o'rnatilgan zamonaviy uskunalarda fizik-mexanik ko'rsatkichlari aniqlash maqsadida yassi FANG mashinasida 90% paxta tolasi bilan 10% laykradan, 93% paxta tolasi bilan 7% laykradan, 95% paxta tolasi bilan 5% laykradan olingan lastik trikotaj gazlamalari hamda 50-60 teksli tanda va arqoq kalava iplardan, sarja o'rilishlarda na'munalar tanlab olindi. Trikotaj matolaridan na'munalar olish FOCT 8844-75 standarti bo'yicha olib borildi. DW-1111 uskunasi yordamida namunalar 100x100 mm o'lchamda qirqib olinib, tadqiqotni bajarishda material hususiyatini o'rganildi olingan natijalarga ko'ra tabiiy paxta va ipak matosidan to'qilgan trikotaj havo o'tkazuvchanligi va suv shimanish xususiyatlari yuqoriligi aniqlandi.

O'tkazilgan tadqiqot ishida trikotaj matosidan ayollar fudbolkasiga tabiiy meva hamda sabzavotlar piyoz po'chog'ida, lavlagi po'chog'ida, limon po'chog'ida, apelsin po'chog'ida, qizil sabzi yordamida rang berish usuli natijalari o'rganib chiqildi. Tabiiy tolali gazlamalarni batik bo'yashda ana shu usullar asos qilib olindi va mamlakatimizda yetishtirilgan sho tut mevasidan bo'yoq sifatida foydalanildi. Dastlab tutning kimyoviy tarkibi o'rganib chiqildi. Tut kimyoviy xususiyatlari tarkibi eng taniqli rezavor meva sifatida shifobaxsh bilan ajralib turadi (1-jadval).

#### 1-jadval

S vitaminini- 86% dan ko'proq;	
Kaltsiy(Ca)- 61% dan ko'proq;	
Temir(Fe)- 60% dan ko'proq;	
Alfa-Karotin- 58% dan ko'proq	

Gazlamani sho tut mevasida bo'yash usuli: 300 gr sho tut mevasi 1litr miqdordagi suvga solib, 100 C° da qaynatib olindi. Qaynatilgan shotut suvi sovutilib, 30 C° li iliq holatga keltirilib, ikki qavat dokadan suzib o'tkazildi. Fudfolkani "Tuguncha" usulidan foydalanib, tugilib bo'yashga tayyorlandi (3-rasm).



3-rasm. Tuguncha usuli.

Tugulgan ayollar fudboltasi sho tut mevasi suviga 5—10 daqiqa solindi. Fudbolka suvdan olinib, qattiq siqmasdan xona haroratida quritildi. Natijada quyidagi siyohrang-qizil ranglari kombinatsiyalashgan batik usulida bo'yalgan kiyim olindi.



4-rasm.Bo'yalgan holati.

Xulosa..

Batik usulining yaratilish tarixi, usuldan foydalanib yaratilgan uy-ro'zg'or buyumlari, kiyimlarni tabiiy ranglarda bo'yashda qo'llanilgan meva hamda rezavorlar tadqiq qilindi. Olingan ma'lumotlarga asoslanib, tabiiy paxta va ipak matosidan to'qilgan havo o'tkazuvchanligi va suv shimanish xususiyatlari yuqori bo'lgan trikotaj gazlamali ayollar fudboldasida sinov-tajriba ishi o'tkazildi. Natijada yangi ko'rinishdagi batik bo'yash usulidagi ayollar futboldasida modeli yaratildi.



4-rasm.Tabiiy rangdagi ayollar fudboldasi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. X.X.Kamilova,N.A.Isaxo'jayeva,K.R.Fuzailova "Kastyum krativ grafikasi" Toshkent 2017
2. O'zbekiston milliy ensiklopedyasi 2000-2005
3. G.K.Xasanbayeva M.Sh. Shomansurova "Mahsus kompozitsiya" Toshkent 2007-yil
4. Ismoilova M.M., Polyakova S.A., Pugachenkova G.A. SHarq miniatyurasi. Izdatelstvo. Literatura im. G.Gulyama 1980 g.
5. Lvova E.P. Fomina N.N. i dr. Mirovaya xudojestvennaya kultura. XX vek. – Moskva, 2008
6. <https://www.dhresource.com>
7. <https://ae01.alicdn.com>